



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА**
**Научно-практический
электронный журнал**

INNOVATIVE ECONOMY
**Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Menejment va marketing
Management and marketing
Менеджмент и маркетинг



REPUTATION RISK VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Karimova SH.Z.

REPUTATIONAL RISK AND THE FACTORS AFFECTING IT

Karimova Sh.Z.

РЕПУТАЦИОННЫЙ РИСК И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕГО

Каримова Ш.З.

Received: March 5, 2026 Revised: March 8, 2026 Accepted: March 12, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklari faoliyatida reputasion riskning mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va bank barqarorligiga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilingan. Maqolada reputatsion risk korporativ boshqaruv, risk-menejment va komplayens tizimlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Tadqiqot natijalari banklarda reputasion riskni boshqarishda integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: reputatsiya, reputatsion risk, tijorat banki, korporativ boshqaruv, risk-menejment, komplayens.

Аннотация: В данной научной статье комплексно проанализирована сущность репутационного риска в деятельности коммерческих банков, причины его возникновения и влияние на устойчивость банка. В данной научной статье комплексно проанализирована сущность репутационного риска в деятельности коммерческих банков, причины его возникновения и влияние на устойчивость банка. В статье изучается репутационный риск в тесной связи с ним.

Ключевые слова: репутация, репутационный риск, коммерческий банкинг, корпоративное управление, риск-менеджмент, комплаенс.

Annotation: This scientific article is a comprehensive analysis of the nature of reputational risk in the activities of commercial banks, the reasons for its origin and its impact on bank stability. This scientific article is a comprehensive analysis of the nature of reputational risk in the activities of commercial banks, the reasons for its origin and its impact on bank stability. The article explores reputation risk in .

Keywords: reputation, reputational risk, commercial banking, corporate governance, risk management, compliance.

■ KIRISH

Bank tizimida reputatsiya tushunchasi so'nggi o'n yilliklarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Reputatsiya — bu bank haqida jamoatchilik, mijozlar, investorlar, davlat organlari hamda boshqa manfaatdor tomonlar ongida shakllangan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tasavvurlar majmuasidir. Ushbu tasavvurlar bankning ishonchliligi, xizmatlar sifati, moliyaviy barqarorligi, korporativ madaniyati va qonunchilik talablariga rioya etish darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Jahon moliya bozorlarida raqobat kuchayib borayotgan, axborot tez tarqalayotgan va raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan sharoitda bank reputatsiyasi strategik aktiv sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari faoliyatida reputasion risklar moliyaviy risklar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lib, ularni inobatga olmaslik bankning uzoq muddatli barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

Ushbu ilmiy maqola rus tilida yozilgan «Reputatsionnyye riski v sisteme risk-menedjmenta kommercheskogo banka» nomli maqola asosida so'zma-so'z tarjima qilingan nazariy qoidalarni o'z ichiga olgan holda, ularni tizimlashtirish va O'zbekiston hamda xalqaro bank amaliyoti nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolaning asosiy maqsadi — banklarda reputasion riskning mohiyatini ochib berish, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda reputasion riskni samarali boshqarish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Reputasion risk ko'p hollarda to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yo'qotish sifatida namoyon bo'lmasa-da, bilvosita ravishda mijozlar oqimining kamayishi, omonatlar hajmining qisqarishi, investisiya jozibadorligining pasayishi, kapitalizatsiya darajasining tushishi va bozorda ishonch yo'qolishiga olib keladi. Shu bois, reputasion riskni korporativ boshqaruv, risk-menejment va komplayens tizimlari bilan



integratsiyalashgan holda o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Reputatsiya va reputasion risk masalalari iqtisodiy adabiyotlarda nisbatan yangi ilmiy yo'nalish hisoblanadi. An'anaviy iqtisodiy nazariyada bank risklari asosan kredit, likvidlik, foiz, valyut va operasion risklar bilan cheklangan bo'lib, reputasion risk mustaqil tur sifatida alohida qaralmagan. Ammo moliya bozorlaridagi inqirozlar, bankrotliklar va lisenziyalarning qaytarib olinishi natijasida reputatsiyaning bank faoliyatidagi ahamiyati keskin oshdi.

Rus iqtisodchi olimlari tomonidan reputasion risk bank faoliyatida yo'qotishlar keltirib chiqaruvchi muhim omil sifatida tavsiflanadi. Xususan, O.N. Korableva o'z tadqiqotlarida reputasion riskni korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqadi va uni samarali boshqarish uchun integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, reputatsiya ijtimoiy ahamiyatga ega tushuncha bo'lib, u bank tizimi barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy olimlar, jumladan E. Griffin va A. Zaman asarlarida reputasion risk strategik risk sifatida baholanadi. Ularning yondashuviga ko'ra, ijobiy reputatsiya bankka uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlaydi, bozor qiymatini oshiradi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, Bazel qo'mitasi hujjatlarida korporativ boshqaruv, shaffoflik va hisobdorlik reputasion riskni kamaytirishning asosiy vositalari sifatida belgilangan.

Markaziy banklar tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda reputasion risk tipik bank

risklari qatoriga kiritilib, uning kelib chiqish omillari ichki va tashqi guruhlariga ajratilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, reputasion riskni baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar etarli emas, balki axborot siyosati, korporativ madaniyat, mijozlar bilan munosabatlar va jamoatchilik fikrini ham inobatga olish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, kontent-tahlil hamda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Korableva O.N.ning rus tilidagi ilmiy maqolasi olindi va unda keltirilgan nazariy qoidalar so'zma-so'z tarjima qilinib, o'zbek tilida ilmiy uslubda qayta bayon etildi. Metodologik yondashuv reputasion riskni bank risk-menejmenti tizimida alohida element sifatida emas, balki korporativ boshqaruv, komplayens va ichki nazorat tizimlari bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Tadqiqotda manfaatdor tomonlar nazariyasi va axborot asimmetriyasi konsepsiyasi qo'llanildi. Shuningdek, banklarda lisenziyalarning qaytarib olinishi, moliyaviy hisobotlarning buzib ko'rsatilishi, ommaviy axborot vositalarida tarqalgan salbiy axborotlar, ijtimoiy tarmoqlardagi negativ fikrlar reputasion riskni kuchaytiruvchi omillar sifatida tahlil qilindi. Metodologiya reputasion riskni oldini olishdan ko'ra, ishonchli munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini asoslashga yo'naltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, banklarda reputasion risk asosan ikki guruh omillar ta'sirida shakllanadi: ob'yektiv va sub'yektiv omillar.



1-rasm. Bank biznes obro'sini yo'qotish tavakkalchiligining asosiy elementlari



Obyektiv omillarga bank qonunchiligini buzish, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik, aktivlar sifatining yomonlashuvi, likvidlik muammolari, moliyaviy hisobotlarning ishonchsizligi va kapital etariligi talablariga rioya etmaslik kiradi. Bu omillar

bankning moliyaviy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamoatchilik ishonchining pasayishiga sabab bo'ladi.

Past	O'rtacha	Yuqori	Juda yuqori
• Salbiy fikr	• Hududiy OAVda salbiy nashr	• Markaziy OAVda salbiy nashr	• Xalqaro OAVda salbiy nashr
• Kompaniyaga nisbatan ishonchning minimal o'zgarishi	• Mo'tadil o'zgarish	• Kompaniyaga nisbatan sezilarli o'zgarish	• Kompaniyaga nisbatan tanqidiy o'zgarish
• Ta'sir muddati bir oydan kam	• Ta'sir muddati bir oydan uch oygacha	• Ta'sir muddati uch oydan ko'proq	• Ta'sir muddati 12 oydan ko'proq
• Ta'sir muddati bir oydan kam	• Ta'sir muddati bir oydan uch oygacha	• Regulyatorlar e'tiborini jalb qiladi	• Jamoatchilik rezonansiga sabab bo'ladi


2-rasm. Reputatsion riskka ta'sir etuvchi omillarning xavflilik darajasi

Subyektiv omillar esa bank menejmenti qarorlarining shaffof emasligi, korporativ madaniyatning past darajasi, xodimlar va mijozlar o'rtasidagi nizolar, axborot ochiqqligining cheklanganligi hamda ommaviy axborot vositalarida tarqaladigan salbiy xabarlar bilan bog'liq. Empirik tahlil shuni ko'rsatadiki, aynan sub'yektiv omillar qisqa vaqt ichida reputatsion riskning keskin oshishiga olib keladi va bankka nisbatan ishonchning pasayishiga sabab bo'ladi. Empirik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, reputatsion riskning kuchayishi ko'pincha mijozlar sonining kamayishi, omonatlar hajmining qisqarishi va bank aksiyalari qiymatining pasayishi bilan bir vaqtda kuzatiladi.

Bunday holatlarda moliyaviy ko'rsatkichlar hali keskin yomonlashmagan bo'lsa-da, reputatsiyaga etgan zarar bankning uzoq muddatli barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. Bu esa reputatsion riskni moliyaviy risklar bilan bir qatorda doimiy monitoring qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Reputatsion riskni boshqarishda axborot siyosati va kommunikatsiya strategiyasining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali tarqaladigan axborotlar bank faoliyati haqida jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Shu sababli, axborotni o'z vaqtida, to'liq va ishonchli taqdim etish reputatsion riskni pasaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Reputatsion risklarni boshqarish



3-rasm. Reputatsion risklarni boshqarish



Korporativ boshqaruv, Risk-menejment va Komplayens tizimini joriy etish banklarda reputasion riskni samarali boshqarish imkonini beradi. Ushbu tizim korporativ boshqaruv organlari, risk-menejment bo'linmalari va komplayens xizmati o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlab, risklar haqida to'liq va xolis ma'lumotlarni bankning yuqori boshqaruv organlariga etkazishga xizmat qiladi. O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanishi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiya jarayonlari reputasion risklar ahamiyatini yanada oshirdi. Tijorat banklari faoliyatida shaffoflik, hisobdorlik va korporativ boshqaruv talablarining kuchayishi reputatsiyani strategik resurs sifatida baholash zarurligini ko'rsatmoqda.

Empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda banklar reputatsiyasiga eng kuchli ta'sir etuvchi omillar qatoriga mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati, raqamli xizmatlar barqarorligi, omonatchilar huquqlarini himoya qilish darajasi va reguliator talablariga rioya etish kiradi. Ayrim holatlarda texnik nosozliklar, to'lov tizimlaridagi uzilishlar yoki mijoz murojaatlariga kech javob qaytarilishi ijtimoiy tarmoqlarda salbiy fikrlarning tarqalishiga sabab bo'lib, reputasion riskni kuchaytirgan.

Markaziy bank tomonidan bank faoliyati ustidan olib borilayotgan nazorat choralari, jumladan lisenziya talablarining kuchaytirilishi va ochiq axborot siyosatining joriy etilishi reputasion risklarni kamaytirishga qaratilgan muhim institusional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, bank rahbariyatining ishchanlik obro'si va korporativ etika qoidalariga rioya etishi jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston bank tizimi misoli shuni ko'rsatadiki, reputasion risklarni samarali boshqarish faqat reguliator talablariga rioya etish bilan cheklanmasdan, mijozlar, investorlar va keng jamoatchilik bilan ochiq va uzluksiz muloqotni ta'minlashni talab etadi. Bu esa reputasion risklarni boshqarishda integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

■ XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, reputasion risk tijorat banklari faoliyatida strategik xarakterga ega bo'lib, u moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik va bozor ishonchiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Reputatsiya bankning nomoddiy aktivi sifatida uzoq muddatli qiymat yaratish imkonini beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

❖ Birinchidan, reputasion risk bank risk-menejmenti tizimida alohida tur sifatida emas, balki kredit, likvidlik, operatsion va huquqiy risklar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu sababli uni izolyatsiya qilingan holda boshqarish samarasiz hisoblanadi.

❖ Ikkinchidan, reputasion riskning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar obyektiv va subyektiv guruhlariga bo'linadi. Obyektiv omillar bank qonunchiligi talablarini buzish, moliyaviy hisobotlarning

ishonchsizligi va aktivlar sifatining yomonlashuvi bilan bog'liq bo'lsa, subyektiv omillar menejment qarorlarining shaffof emasligi, korporativ madaniyatning past darajasi va axborot ochiqqligining etishmasligi bilan izohlanadi.

❖ Uchinchidan, empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, reputasion risk ko'pincha moliyaviy muammolar yuzaga kelishidan oldin signal vazifasini bajaradi. Mijozlar ishonchining pasayishi, omonatlar oqimining qisqarishi va jamoatchilik fikrining salbiylashuvi bank moliyaviy ko'rsatkichlari yomonlashishidan avvalroq kuzatiladi.

❖ To'rtinchidan, O'zbekiston bank tizimi misolida olib borilgan tahlil shuni tasdiqlaydiki, raqamli bank xizmatlari sifati, texnologik barqarorlik va mijozlar bilan samarali kommunikatsiya reputasion risklarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan salbiy axborotlar bank reputatsiyasiga qisqa muddatda sezilarli zarar etkazishi mumkin.

❖ Beshinchidan, reputasion risklarni samarali boshqarish uchun GRC (Governance, Risk Management, Compliance) tizimini joriy etish zarur bo'lib, ushbu tizim korporativ boshqaruv organlari o'rtasida axborot almashinuvi va risklar bo'yicha yagona yondashuvni ta'minlaydi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, dissertatsiya doirasida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

❖ Birinchidan, tijorat banklarida reputasion risklarni boshqarish bo'yicha alohida ichki siyosat va reglamentlarni ishlab chiqish hamda ularni bankning umumiy risk-menejment strategiyasiga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

❖ Ikkinchidan, banklarda axborot ochiqqligini oshirish, moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlarni muntazam ravishda jamoatchilikka taqdim etish orqali mijozlar va investorlar ishonchini mustahkamlash zarur.

❖ Uchinchidan, korporativ madaniyatni rivojlantirish, bank xodimlari uchun etik me'yorlar va xulq-atvor kodekslarini joriy etish reputasion risklarni kamaytirishning muhim omili sifatida qaralishi lozim.

❖ To'rtinchidan, mijozlar murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish, raqamli platformalarda tezkor va shaffof javob berish mexanizmlarini joriy etish bank reputatsiyasini himoya qilishga xizmat qiladi.

❖ Beshinchidan, Markaziy bank va boshqa reguliator organlar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, prudensial talablar va komplayens nazoratini takomillashtirish bank tizimi barqarorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, reputasion risklarni samarali boshqarish tijorat banklarining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim strategik yo'nalish bo'lib, mazkur dissertatsiya natijalari bank amaliyotida qo'llash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Karimova SH.Z. Toshkent amaliy fanlar universiteti Bank va moliya kafedrasida assistenti / Karimova Sh.Z. Tashkent University of Applied



Sciences Assistant of the Department of Banking and Finance / Каримова Ш.З. Ташкентский университет прикладных наук ассистент кафедры банковского дела и финансов

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кораблева О.Н. Репутационные риски в системе риск-менеджмента коммерческого банка // Российское предпринимательство. – 2013. – №24 (246).
2. Griffin E. Reputation Risk Management. – London: Kogan Page, 2009.
3. Zaman A. Reputational Risk and Value Creation. – New York: McGraw-Hill, 2008.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Enhancing Corporate Governance. – BIS, 2012. Zakon RF «О банках и банковской деятельности». Письмо Банка России №92-Т от 30.06.2005.
Ассоциация банков России. Стандарт управления репутационным риском. – 2010.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz